

## **ONKOLOGIK KASALLIK BILAN KASALLANGAN BEMORLARDAGI PSIXOLOGIK O'ZGARISHLAR VA ULARDAGI DEPRESSIV HOLATNI BAHOLASH.**

- 1. Melibayeva Ruzaxon Nasirovna**
- 2. O'ktamova Dinara Zafar qizi**
- 3. Uktamov Diyorbek Zafar o'g'li**

- 1. Toshkent tibbiyot akademiyasi Pedagogika va psixologiya kafedrasini mudiri**
  - 2. Toshkent tibbiyot akademiyasi 5-bosqich talabasi**
  - 3. Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-bosqich talabasi**
- <https://doi.org/10.5281/zenodo.7646260>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada onkologik kasallik bilan xastalangan bemorlardagi depressiv holatlar va uning darajalarini aniqlash haqida batafsil ma'lumot berilgan. O'sma kasalliklari insonlarda salbiy fikrlar va depressiya, ruhiy tushkunlik kabi psixo-emotsional holatlarga sabab bo'ladi. Bemorlardagi depressiv holat va ruhiy tushkunlik vaziyatida ular bilan to'g'ri psixologik terapiya ishlarini olib borish haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** depressiya, ruhiy buzilish, o'sma, psixokorreksiya, konflikt, affektiv, ipoxondriya, isteriya, insomniya, agressiv holatlar.

O'sma kasalliklari nafaqat respublikamizda, balki butun dunyo miqyosida murakkab muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida onkologik kasalliklarga chalinish ko'rsatkichlari oshib borayotir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2030 yilda butun dunyoda o'sma xastaliklari bilan 15 million kishi kasallanishi mumkin.

Barchamizga ma'lumki onkologik kasalliklar hech qanday simtomlarsiz, birorta belgilarsiz vujudga keladi. Oqibatda ularni aniqlash imkoni judayam qiyinlashadi. Kasallik qancha kech aniqlansa, kasallik darajalariga qarab ularni davolash imkoniyati ham ancha pasayadi. Onkologik kasalliklar qancha tez tashxis qo'yilib, erta aniqlansa ularga qarshi kurashish shuncha osonlashadi. Bugungi kunda dunyoda ko'krak bezi saratonidan keyingi o'rinda bachadon bo'yni va bachadon tanasi raki judayam ko'p uchraydi. Ko'p hollarda ayollar kechikib murojaat qilishadi. Kasalliklarning kelib chiqish sabablari bo'yicha nazariyalar judayam keng qamrovli bo'lib, aniq bir sababni keltirish qiyin. Gormonal statusning o'zgarishi, stress holati, ortiqcha vazn va moddalar almashinuvi buzilishlari onkologik kasalliklarning vujudga kelishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari nasliy omillar, tashqi muhitning o'zgarishi, ekologik holat hamda ko'pgina yuqumli kasalliklar ham kasallik rivojlanishiga ta'siri bor degan nazariyalar mavjud.

**Tadqiqotning obyekti:** Onkologik kasallik tashxisi qo'yilgan jami 22 nafar bemor, 12 nafari ayollar va 8 nafari erkaklar. Onkologik kasallik bilan og'rikan bemorlardagi psixologik buzilishlarni aniqlash maqsadida tekshiruv olib borildi. Bu tekshiruvlar aynan bemorlardagi kasallikdan keyin kelib chiquvchi depressiya va ishga bo'lgan qobiliyatning darajasini aniqlash borasidagi sinamalar orqali aniqlandi. Tekshiriluvchi bemorlarimizda HADS, TSUNG so'rovnomalari o'tkazildi. Shuningdek kreplin jadvali asosida ishga layoqatlilik darajasi hisoblab chiqildi. Bilamizki onkologik bemorlar o'z kasalliklaridan xabar topganlaridan so'ng ularning ongida, hayot tarzida jiddiy stress va depressiv holatlar boshlanadi. Bu jarayonlarni erta aniqlash, depressiyaning darajasini bilish orqali biz bemorlarning ahvolini to'g'rilash va psixokorreksion terapiyaga ishlarini olib borish imkoniga ega bo'lamiz. Bu esa davolanish

jarayonlarini shuningdek bemor va uning atrofdagilariga bo'lgan munosababtlarini ham yaxshilanishga sabab boladi. TSUNG sinamasiga ko'ra bunday bemorlar o'zlarining shaxsiy holatlaridan kelib chiqqan holda, normal holatda, yengil depressiya yoki subdepressiya ya'ni niqoblangan depressiya holatida bo'lishlari ham mumkin. Eng yuqori darajalarida esa bemorlarda haqiqiy depressiv holat va ruhiy tushkunlik aniqlanadi.

<b>№</b>	<b>Tekshiriluvchilar</b>	<b>yoshi</b>	<b>ball</b>
tek1	1-tekshiriluvchi	25 yosh	65 ball
2	2-tekshiriluvchi	71 yosh	55 ball
3	3-tekshiriluvchi	66 yosh	67 ball
4	4-tekshiriluvchi	76 yosh	48 ball
5	5-tekshiriluvchi	51 yosh	56 ball
6	6-tekshiriluvchi	53 yosh	68 ball
7	7-tekshiriluvchi	75 yosh	72 ball
8	8-tekshiriluvchi	52 yosh	57 ball
9	9-tekshiriluvchi	48 yosh	69 ball
10	10-tekshiriluvchi	63 yosh	61 all

Bu tekshiruv natijalariga ko'r bemorlardagi depressiv holatlar va ruhiy buzilishlarning qay darajada ekanligini aniqlash imkoniga ega bo'lamiz. Onkologik bemorlar bilan nafaqat onkolog shifokorlar balki, psixolog va psixoterapevtlar ham hamkorlikda ish olib borishlari va davo qilishlari bemorlarning tez va oson depressiya holatidan chiqib olishlariga yordam beradi. Bundan tashqari bunday bemorlarning holatidan kelib chiqqan holda Onkologik kasalliklar bilan og'rigan bemorlar bilan muloqot qilishda ularning psixologik holatlarini ham hisobga olish lozim. Bemorlarni nafaqat tibbiy jihatdan davolash balki, ruhiy jihatdan ham ijobiy rag'batlantirib borish kerak. Bemor va oila a'zolari bilan munosabatlarda hayotga bo'lgan ishonch va tuzalish hissini uyg'ota olish kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Xulosa sifatida shuni aytishim mumkinki, Yuqorida tekshirilgan bemorlar va ularda qo'llanilgan metodlar o'zining dolzarbligi va aniq natija bera olishi bilan ahamiyatli. Onkologik kasalliklar bilan kassallangan bemorlarning barchasida psixologik buzilish yuzaga kelishi tabiiy va bunday holda depressiyaning darajasini aniqlash va bu holatdan chiqarib olishga qaratilgan ishlar qancha erta boshlansa bemorlarning ahvolini yengilashishiga katta yordam beradi.

### References:

Andrykowski M. A., Cordova M.J. Factors associated with PTSD symptoms following treatment for breast cancer: test of the Andersen model. // TraumaStress. – 1998. – Vol. 11. – P. 189-203

1. Стирлинг Мури, Стивен Грир., Когнитивно поведенческая терапия для онкологических пациентов Оксфордское руководство.
2. Карпова Э.Б., Чулкова В.А. Онкологическое заболевание как психологический кризис // матер. научн.-практ. конф. «Ананьевские чтения – 2007». СПб.: Изд-во СПбГУ. – 2007. – С. 556 – 557
3. Решетников М.М. Психическая травма. – СПб: Речь. – 2006. – 322 с.Марилова Т.Ю. Особенности мотивационной сферы у онкологических больных (рак молочной железы): автор. дис. канд. психол. наук М. - 1984.
4. Семиглазова Т.Ю., Ткаченко Г.а., Чулкова В.а. Психологические аспекты лечения онкологических больных // Злокачественные опухоли. – 2016. — No 4, спецвыпуск 1. – С. 54-58.